

№ 86- sonli
Loyiha-smeta xujjatlari tuzish
SHARTNOMASI

2022 yil "28" Noyabr

Qarshi shahri

Qashqadaryo viloyat hokimligi Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasi nomidan (keyingi o'rnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan) Nizomi asosida faoliyat ko'rsatuvchi direktori A.Normo'minov № PK- 408 sonli qaroriga hamda bir tomondan va ustav asosida faoliyat ko'rsatayotgan «Obod yo'l qurilish ta'mir» МЧЖ nomidan (keyingi o'rnlarda «Bajaruvchi» (Bajaruvchi nomi) deb yuritiladigan) Nizomi asosida faoliyat ko'rsatuvchi boshlig'i I.U.Qulmirzaev ikkinchi tomondan, Qarshi shaxri Shodlik MFY 6-mitti tuman, 2.74 km piyo'dalar yo'lagini ta'mirlash bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlash shartnomasini tuzdilar.

1. Shartnomaning mazmuni

- 1.1. "Buyurtmachi" topshirig'iga asosan "Bajaruvchi" Qarshi shaxri Shodlik MFY 6-mitti tuman, 2.74 km piyo'dalar yo'lagini ta'mirlash bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlashni o'z zimmasiga oladi.
- 1.2. "Bajaruvchi" loyiha ishlarini "Korxona, bino va inshootlari qurilishiga loyiha-smeta xujjatlarining tarkibi, ishlab chiqish tartibi va tasdiqlash" haqidagi SHNQ 1.03.01-03, "Qurilishda joriy shartnomaviy baholarni aniqlash tartibi" to'grisidagi SHNQ 4.01.16-04 va loyihaga qo'yiladigan me'yoriy talablarni, qoida va qo'llanmalar asosida bajarilishini ta'minlaydi.
- 1.3. Bajariladigan ishlarga ilmiy, texnik, iqtisodiy va boshqa talablarni bajarish loyihalash topshiriqnomasida ko'rsatiladi.
- 1.4. Ishlarning bajarilish muddati tanlov bayonnomasi asosida belgilanadi va mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.
- 1.5. "Bajaruvchi" maxsus loyiha ishlariga yordamchi bajaruvchi tashkilotlar bilan qo'shimcha shartnomalarni tuzishga haqlidir. Qo'shimcha shartnomalarni tuzish "Bajaruvchi"ning zimmasiga yuklatilgan mazkur shartnomaning shartlarini bajarish javobgarligidan ozod etmaydi.
- 1.6. Xo'jalik shartnomalarni bir tomonlama o'zgartirishga ruxsat etilmaydi.

2. Tomonlarning majburiyatları

3. a) "Bajaruvchi"ning majburiyatları
4. 2.1. "Bajaruvchi" "Buyurtmachi" tomonidan berilgan loyihalash topshiriqnomasi va arxitektura-rejalashtirish topshiriqnomasi asosida loyiha ishlarini bajaradi;
5. 2.2. "Bajaruvchi" mazkur shartnomalarni bo'yicha bajarilgan ishlarni "Buyurtmachi"ning ruxsatsiz uchinchisi shaxsga berishga haqli emas.
6. 2.3 "Bajaruvchi" mazkur shartnomalarni bo'yicha Atrof muxitga ta'sir ko'rsatish to'g'risidagi bayonet loyiha hujjatini tayyorlash ishlarini bajaradi;
7. 2.4. Davlat ekologik ekspertizasini o'tkazadi;
8. 2.5. Topotasvir va giologiya ishlarini bajaradi;
9. 2.6. Loyer ishlarini bajarilishini parallel ravishda ta'minlaydi;
10. 2.7. "Bajaruvchi" tomonidan tayyorlangan loyiha asosida hisoblangan smetadagi fizik ishlajimlar, material resurslar miqdori to'g'riligi (loyihaga mosligi) uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi va oyma-oy bajarilgan ishlarni to'g'risida "Buyurtmachi"ga kelishilgan jadval asosida hisobot topshirib turadi.
11. 2.8. VMning 2021 yil 20 maydag'i 321-sonli qarori 3-ilovasiga asosan "Qurilishda mualliflik va texnik nazorat to'g'risida Nizom" talabi asosida bajaruvchi tomonidan inshootda qurilish-montaj ishlarining loyiha yechimlariga muvofiqligi ustidan mualliflik nazoratini belgilangan tartibda olib boradi.
12. b) "Buyurtmachi"ning majburiyatları:
13. 2.9. "Bajaruvchi"ga ish hajmlarini bajarilishiga kerakli arxitektura-rejalashtirish topshiriqnomasini taqdim etadi;
14. 2.10. Bajarilgan loyiha ishlaridan shartnomada ko'zda tutilgan maqsadda foydalanadi;
15. 2.11. "Bajaruvchi" tomonidan bajarilayotgan loyiha ishlari va ko'rsatilayotgan xizmatlarning sisatini kuzatib boradi, mualliflik nazoratini belgilangan tartibda olib boradi;

16. 2.12. "Buyurtmachi" mablag' bilan ta'minlovchi tashkilotlarga bajarilgan loyiha ishlaringin hajmi to'g'risida hisobotlarni o'z vaqtida topshirilishini ta'minlaydi.

3. Sharhnomalar bo'yicha ishlar qiymati

3.1. Mazkur sharhnomalar bo'yicha "Bajaruvchi" tomonidan bajariladigan ishlar tanlov (tender) savdosi natijasida aniqlangan va tanlov (tender) komissiyasining 2022 yil 24 Noyabrdagi lot № 22110012192552-sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan qiymati barcha soliqlar, yig'ima va ajratmalarini (QQSni inobatga olgan holda) joriy narxlarda **30 000 000** (O'ttiz million) so'mni tashkil etadi.

3.2. "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ni mazkur sharhnomalar bo'yicha oldindan 15 foiz miqdorida bo'nak (avans) mablag'i bilan ta'minlaydi. 2022 yil tasdiqlangan manzilli dasturga asosan ajratilgan limit doirasida mablag' moliyalashtirib beriladi. Belgilangan mablag'lar bilan ta'minlash "Buyurtmachi"ni shu maqsadlar uchun Moliyalashtiruvchi organlar tomonidan moliyalashtirilgandan keyin 5 bank ish kunida amalga oshiriladi. Bajarilgan ishlar uchun moliyalashtirishning qolgan qismi mazkur ishlar sifatli qilib bajarilib, mualliflik nazoratini belgilangan tartibda olib borgach dalolatnomalar asosida qabul qilingandan keyin bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

3.3. Mablag' bilan ta'minlovchi organ tomonidan inshoot uchun mablag' ajratilmagan holatda "Buyurtmachi" bajarilgan ish uchun bajaruvchiga to'lovlarni sharhnomada belgilangan muddatda amalga oshirish majburiyatini olmaydi va iqtisodiy sud oldiga moliyalashtirilmagan mablag' uchun javobgar bo'lmaydi.

3.4. "Bajaruvchi" tomonidan ishlarning chiqilgan qurilishga sarflanadigan moddiy texnika resurslari miqdori va qurilish muddati uzil-kesil hisoblanadi va qayta ko'rib chiqilmaydi, ayrim hollar bundan mustasno, ya'ni:

3.4.1. Ishlarning bajarish va xizmat ko'rsatish qiymati va muddatini o'sishiga yoki shu parametrlardan biriga bartaraf etib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major holati) sabab bo'lsa.

3.4.2. "Buyurtmachi" tomonidan ish hajmlariga o'zgartirish kiritilganda.

3.4.3. Ishlarning bajarish, xizmati ko'rsatish muddati bir yildan ortiq bo'lganda.

3.4.4. Loyiha-smeta bo'yicha hajmga o'zgartirish kiritilganda sharhnomalar qiyomatiga o'zgartirish qo'shimcha kelishuv tuzish bilan yo'l qo'yiladi.

3.4.5. Asoslab berilgan holda, yuqorida qayd etilgan o'zgartirishlar "Buyurtmachi" va "Bajaruvchi" o'rtaida qo'shimcha kelishuv bilan rasmiylashtiriladi.

4. Ishlarning topshirish va qabul qilish tartibi

4.1. Bajarilgan ishlar ShNQ 1.03.01-03 va "Buyurtmachi" tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshiriq talablari asosida qabul qilinadi.

4.2. "Bajaruvchi" ishlarning bajarib bo'lgach, "Buyurtmachi"ga texnik topshiriqda ko'rsatilganidek topshirish-qabul qilish dalolatnomasi bilan birgalikda ilova qilib 2 ta nusxada loyiha-smeta hujjatlari komplektini taqdim etadi.

4.3. "Buyurtmachi" mazkur sharhnomaning 4.2.-bandida ko'rsatilganidek, topshirish-qabul qilish dalolatnomasini va hisobot hujjatlarida bajarilgan ishlarning 5 kun mobaynida qabul qilish majburiyatini oladi va "Bajaruvchi"ga imzolangan yoki asosli e'tiroz bildirilgan topshirish-qabul qilish dalolatnomasini jo'natadi.

4.4. Bajarilgan ishlarini topshirish-qabul qilish davomida "Buyurtmachi"ning asosli e'tirozi bo'lsa, kamchiliklarning ro'yxati va ularni bartaraf etishning aniq muddatini belgilovchi jarayoni keyinchalik uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi ma'lum bo'llib qolsa, tomonlar 5 kun mobaynida bir-birlarini ishlar to'xtatilganligi haqida xabardor qilishlari shart va 10 kun mobaynida ishlarning davom ettirish uchun maqsadga muvofiq bo'lgan yo'naliishlarning oydinlashtiruvchi masalalarini ko'rib chiqishlari kerak. "Buyurtmachi" ushbu holatda "Bajaruvchi"ga amalda bajarilgan loyiha ishining harajatlarini mazkur sharhnomaning 3.3.2 va 3.3.4 bandlariga asosan amalga oshiradi.

5. Tomonlarning javobgarligi

5.1. To'lov talabnomasini asossiz ravishda to'la yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitoblarning boshqa shakklardagi ishlarga haq to'lashdan bosh tortganligi (G'aznachilik boshqarmasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaslik, chek bermaslik, akkreditiv qo'yimaslik va xokozo) uchun, "Buyurtmachi" to'lovdan bosh tortgan yoki rad etgan summasining 0,04 foiz

hajmida "Bajaruvchi"ga penya to'laydi. Ammo bunda umumiy summa bajarilmagan ish yoki ko'rsatilmagan xizmatning 50 foizdan oshmasligi kerak.

5.2. "Buyurtmachi" olgan majburiyatini buzganligi uchun mazkur shartnomaning 4.3 moddasiga asosan u "Bajaruvchi"ga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatning ijro etilmay qolgan qismining 0,04 foiz hajmida penya to'laydi. Ammo bunda umumiy summa bajarilmagan ish yoki ko'rsatilmagan xizmatning 50 foizdan ortib ketmasligi kerak.

5.3. "Bajaruvechi" ishlarini bajarishda, xizmat ko'rsatishda olgan majburiyatlarini buzganligi uchun o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatning ijro etilmay qolgan qismining 0,04 foiz hajmida penya to'laydi. Ammo bunda umumiy summa bajarilmagan ish yoki ko'rsatilmagan xizmatning 50 foizdan ortib ketmasligi kerak. Penya to'lash shartnoma majburiyatini buzgan tomonni kechiktirib bajargan ishi yoki ko'rsatgan xizmati oqibatida keltirilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

5.4 "Bajaruvechi" shartnoma talablariga ko'ra mualliflik nazoratini lozim darajada olib bormaganligi aniqlansa shartnoma umumiy qiymatining 30 % miqdorida jarima to'laydi.

5.5. "Bajaruvechi" tomonidan tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlarida nuqsonlar (tayyorlangan smeta hujjatlaridagi ish hajmlarini loyiha-mos kelmasligi) aniqlansa "Bajaruvchi" kamchiliklarni o'z hisobidan to'g'rilanishini ta'minlaydi yoki taqdim etilgan loyiha-smeta hujjatlarida qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi, yetkazilgan zararlarni qoplab beradi.

5.6. Agar sodir bo'lishiga tomonlarning hech biri javob bermaydigan (fors-major) hollar yuzaga kelsa, tomonlar o'z harakatlarida O'zbekiston Respublikasi qonunchilik me'yorlariga suyanadilar.

5.7. Agar bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar kerakli sifatga, texnik shartlarga va majburiyat shartlari uchun mos kelmasa, "Buyurtmachi" bajarilgan ishlarga haq to'lashdan bosh tortishga haqli. "Bajaruvchi"dan sifatga javob bermaydigan ish qiymatining 0,4 foizi penya undirishga haqli, biroq bunda penyaning umumiy summasi shartnoma qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim. Agar bajarilgan ishlarga, ko'rsatilgan xizmatlarga haq to'lab qo'yilgan bo'lsa, belgilangan tartibda to'langan so'mmani qaytarishni talab qilishga hamda penya talab qilishga haqli.

Penya hisobi to'lov talabnomasi bank muassasasiga, loyiha nujjatlarining sifati, assortimenti va sifati lozim darajada bo'limgan bajarilgan ishlar aniqlangan kundan boshlab bu haqida dalolainoma tuzilganidan keyin 10 kundan kechikmay taqdim etilishi lozim. Penyaa hisobi to'lov talabnomasi belgilangan 10 kunlik muddatni buzgan tarzda taqdim etilsa va "Bajaruvchi" penyanı ixtiyoriy to'lashdan bosh tortsa penyanı undirish belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan amalga oshiriladi.

5.8. ShNQ 1.03.01-03ning 1.13 bandiga asosan inshootning loyiha-smeta xujjalarda qabul qilingan texnik iqtisodiy yechimlar, fizik ish hajmlarining to'g'riliqi va qurilish materiallari uchun qo'llaniladigan birlik narxlarining to'g'riliqi va haqqoniyligi uchun loyiha tashkiloti to'liq javob berishlari, agarda qurilish ishlari uchun tender savdolari o'tkazilgandan so'ng qurilish jarayonida loyiha hujjatlarida aniqlangan xato va kamchiliklar qiymati aniqlansa, ushbu kamchiliklarni to'g'rinish uchun ketadigan barcha xarajatlar loyiha tashkilotlari tomonidan to'liq qoplaniladi.

5.9. Shartnomani ijro etmaganligi yoki yetarli darajada bajarmaganligi uchun, javobgarlik agar shartnomada o'zgaeha ko'zda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuning 24-35-moddalariga asosan javobgarlik choralar qo'llaniladi.

5.10. Tomonlar o'rtasida nizolar va kelishmovchiliklar yuz bergen holatlarda, umumiy da'vo muddati (3 yil) hisobga olingan holda Qarshi tumanlararo iqtisodiy sudiga murojaat qilinadi.

6. Bartaraf etib bo'lmaydigan kuch holati (fors-major)

6.1. Agar tomonlar majburiyatlarning qisman yoki to'la ijro etilmay qolishi tabiiy hodisalar, harbiy harakatlar, yuqumli kasalliklar tarqalishi va boshqa bartaraf etib bo'lmaydigan kuchlar sababli sodir bo'lgan bo'lsa, hamda bu holat mazkur shartnoma ijrosiga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, tomonlar mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarning qisman yoki to'la ijro etilmay qolgan qismi uchun javobgarlikdan ozod bo'ladiilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarning ijro muddati bartaraf etib bo'lmaydigan vaziyat, keltirib chiqargan oqibat hukm surgan vaqtga mos ravishda muddati uzaytiriladi.

6.2. Agar bartarasf etib bo'lmaydigan kuch vaziyati yoki uning oqibatlari 3 oydan ortiq vaqtga cho'ziladigan bo'lsa. "Bajaruvchi" va "Buyurtmachi" ishni davom ettirish yoki noma'lum vaqtga to'xtatish uchun chora-tadbirlar ko'rishni muhokama qiladilar.

Agar tomonlar 2 oy mobaynida bir to'xtamga kela olmasalar, tomonlarning har qaysisi shartnomani bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

7. Qo'shimcha shartlar

7.1. Mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan tomonlarning o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuniga, hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga asosan belgilanadi.

8. Shartnomaning amal qilish muddati va shartlari

8.1. Mazkur shartnomani tomonlar imzolangandan keyin qonuniy kuchga kiradi va uning shartlari to'liq bajarib bo'lguncha haqiqiy hisoblanadi.

8.2. Mazkur shartnomaning amal qilish muddati 31 dekabr 2022 yil.

8.3. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

9. Nizolarni hal etish tartibi va huquqiy ekspertizasi

9.1. Shartnomaning mazmuni uni tuzishga tayyorlash jarayonida yuridik xizmat sub'ektlari yoki jalg etilgan advokatlar tomonidan qonunchilikka muvofiq kelishi tekshirilgan bo'lishi darkor. Ularning imzosiz yoki xulosasiz shartnoma tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi.

9.2. Shartnomani tuzish, ijro etish, o'zgartirish va bekor qilish, shuningdek, keltirilgan zararni qoplash chog'ida tomonlar o'rtasida vujudga kelgan bahslar qonunchilikda belgilangan tartibda Qarshi tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan yoki, tomonlarning kelishuviga binoan hakamlik sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

10. Tomonlarning rekvizitlari

"Buyurtmachi"	"Bajaruvuchi"
<p>Viloyat hokimligi Injiniring kompaniyasi Manzili: Qarshi sh, O'zbekiston ovozi gazetasi 3-uy Tel: 227-16-56, 227-14-60, faks 227-19-82. sh/x*# 302021860104017065100110030.</p> <p>INN 204 796 710 OKONX 69000 Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar Koshko'li qishloqga bank Koshkadarё viloyati</p>  <p>A. Normo'minov</p>	<p>«Obod yo'l qurilish ta'mir»ma'suliysi cheklangan jamiyati Manzil:Qarshi shahar O'zbekiston ko'chasi 47 uy Telefon : 777-66-51 +99891 219-09-20 INN:- 302174992 H\R 20208000004951013001 MFO -01037 Qishloq qurilish bank Qarshi shahri XXTUT 61110</p>  <p>Direktor: I.U.Qulmirzaev</p>

Xulosasi: Ushbu shartnoma O'zR FK va "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning normalari va tomonlar javobgarligi, nizolarni hal etish umiddagi qo'min hujjatlari talablariga javob beradi.

Bosh yuristkonsult:


(Imzo)

D.Kulnazarov

ISHLARNING KALENDAR REJASI

Qashqadaryo viloyat hokimligi injiniring kompaniyasi topshirig'i bilan, Qarshi shaxri Shodlik MFY 6-mitti tumani, 2.74 km piyo'dalar yo'lagini ta'mirlash bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlash.

2022 yil 28 Noyabrdagi
№86-sonli shartnomaga
1-ilova

№	Shartnoma bo'yicha bajariladigan ishlarning va asosiy bosqichlarning ro'yxati	Bajarish muddati		Bosqichlarning hisob qiymati yig'indisi QQS bilan birga
		Boshlanishi	Yakunlanishi	
1	Qarshi shaxri Shodlik MFY 6-mitti tumani, 2.74 km piyo'dalar yo'lagini ta'mirlash bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlash	2022 yil	2022 yil	30 000 000
	Jami:			30 000 000

(O'ttiz million) so'm
(So'mma so'z bilan)

“BUYURTMACHI” nomidan

Direktor:



“BAJARUVCHI” nomidan

Direktori



I.U.Qulmirzaev

2022 yil 28 Noyabrdagi
 № 86-sonli shartnomaga 2-ilova
 Qarshi shaxri Shodlik MFY 6-mitti tuman, 2.74
 km piyo'dalar yo'lagini ta'mirlash bo'yicha
 loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlash

S M E T A S I

Buyurtmachi: Qashqadaryo viloyat hokimligi injiniring kompaniyasi
 Bajaruvchi: «Obod yo'l qurilish ta'mir» МЧЖ

N	Tashkilot, qurilish inshootlari yoki ish turlarining tavsifi	Qurilish uchun loyiha (qidiruv) ishlari narxlari to'plamining qismi № bobi, jadvali bandi	Qiymatini hisoblash $(axb)=c$	Qiymati QQS bilan birga
1	2	3	4	5
1	Qarshi shaxri Shodlik MFY 6-mitti tuman, 2.74 km piyo'dalar yo'lagini ta'mirlash bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlash	O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirining 2020 yil 19 avgustdagি 876-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Loyiha-tadqiqot ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risida»gi Nizom		30 000 000
JAMI				30 000 000

(O'ttiz million) so'm
(So'mma so'z bilan)